



MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVATSION JARAYONLARNING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

dots. Xamrayev Quvvat

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
ORCID: 0000-0002-6582-1323*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tarkibiy elementlari, rivojlanish mexanizmlari hamda hududlar darajasida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya faoliyati bilan innovatsion jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, mintaqalar iqtisodiy salohiyatiga ta'siri, infratuzilma, institutsional muhit va boshqaruv mexanizmlarining jarayon samaradorligidagi o'рни yoritilgan. Mintaqaviy farqlar, resurslar taqsimoti, klasterlash jarayonlari hamda davlat-xususiy sheriklikning yangi shakllari asosida mintaqaviy investitsiya-innovatsion tizimning asosiy tamoyillari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari hududlar raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va investitsion siyosatni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mintaqaviy rivojlanish, investitsiya jarayonlari, innovatsion jarayonlar, iqtisodiy mexanizmlar, institutsional muhit, mintaqaviy farqlar, klasterlash, davlat-xususiy sheriklik, raqobatbardoshlik.

СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ИНВЕСТИЦИОННО-ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

доц. Хамраев Кувват

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни

Аннотация. В статье рассматривается экономическая сущность региональных инвестиционно-инновационных процессов, их структура, механизмы функционирования и специфические особенности, проявляющиеся на уровне отдельных территорий. В исследовании анализируется взаимосвязь инвестиционной активности и инновационного развития, влияние данных процессов на экономический потенциал регионов, а также роль инфраструктуры, институциональной среды и механизмов управления в повышении их эффективности. Кроме того, выявляются региональные различия, факторы распределения ресурсов, процессы кластеризации и современные формы государственно-частного партнерства. Полученные результаты имеют практическую значимость при разработке стратегий инновационного развития и совершенствовании региональной инвестиционной политики.

Ключевые слова: региональное развитие, инвестиционные процессы, инновационные процессы, экономические механизмы, институциональная среда, региональные различия, кластеризация, государственно-частное партнерство, конкурентоспособность.

THE ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF REGIONAL INVESTMENT-INNOVATION PROCESSES

assoc. prof. **Khamraev Quvvat**

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Abstract. *This article examines the economic essence of regional investment-innovation processes, their structural components, operational mechanisms, and specific features that emerge at the territorial level. The study analyzes the interrelation between investment activity and innovation development, their impact on the regional economic potential, and the role of infrastructure, institutional environment, and governance mechanisms in improving process efficiency. The research also highlights regional disparities, resource allocation factors, clustering processes, and modern forms of public-private partnerships. The findings provide practical value for enhancing regional competitiveness, formulating innovation development strategies, and improving regional investment policies.*

Keywords: *regional development, investment processes, innovation processes, economic mechanisms, institutional environment, regional disparities, clustering, public-private partnership, competitiveness.*

Kirish.

Bugungi globallashuv, raqobatning keskinlashuvi va iqtisodiyotning texnologik modernizatsiya jarayonlari sharoitida mintaqalar darajasida investitsiya va innovatsion faoliyatning o'sishi barqaror iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Innovatsion iqtisodiyot sari yo'nalgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish va hududiy rivojlanish strategiyasini innovatsion tamoyillar asosida shakllantirish iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omildir. Shu jihatdan, mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlarning mohiyatini ochib berish, ularning tarkibiy elementlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir.

Mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlar hududning iqtisodiy, ilmiy-texnik, infratuzilmaviy va institutsional salohiyatiga tayanadi. Har bir hududning geoiqtisodiy joylashuvi, resurslari, demografik tarkibi, biznes muhiti va boshqaruv tizimi investitsiya oqimlari va innovatsion tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mintaqalarda investitsiya va innovatsion jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari ham bir-biridan sezilarli farq qiladi. Bu farqlarni aniqlash va ilmiy asoslash mintaqaviy rivojlanish siyosatini takomillashtirish uchun zarurdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion ekotizimni shakllantirish bo'yicha katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mintaqalarda texnoparklar, innovatsion markazlar, biznes-inkubatorlar faoliyati kengaymoqda, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, investitsiya-innovatsiya jarayonlarining samaradorligi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, innovatsion klasterlar yaratish va resurslardan optimal foydalanishni ta'minlash hali ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlarni har tomonlama o'rganish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishning barqaror modelini yaratish va investitsion siyosatning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida mintaqaviy investitsiya va innovatsion jarayonlarning nazariy asoslari, ularni shakllantiruvchi omillar, jarayonlarning hududlar bo'yicha diferensial xususiyatlari hamda investitsiya-innovatsion tizimning ishlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, investitsiya va innovatsiya jarayonlari o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlanishi hududlar iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratadi, yangi texnologiyalarni joriy etishga turtki beradi, tadbirkorlik faolligini oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur mavzuning ilmiy asosda o'rganilishi hududiy siyosatni optimallashtirish, investitsion xavflarni kamaytirish, innovatsion ekotizimni rivojlantirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga yo'naltirilgan muhim ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston olimlari mintaqaviy investitsiya jarayonlari, innovatsion siyosat va hududiy rivojlanish masalalarini izchil o'rganganlar. Abdug'aniyev (2020) o'z tadqiqotlarida investitsiya jarayonlarining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini asoslab, mintaqalarda investitsion faollikni oshirish uchun institutsional muhitni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

G'ulomov va Abduqodirov (2018) esa investitsiya muhitining shakllanishi, investorlar uchun sharoitlar, soliq imtiyozlari va mintaqaviy investitsiya siyosati mexanizmlarini batafsil yoritadi. Ular hududlarda investitsiya oqimlarini tartibga solishning bosh omili sifatida iqtisodiy infratuzilma va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini ko'rsatadi.

Innovatsion rivojlanish bo'yicha Umurzakov (2019) innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosi sifatida baholab, mintqa darajasida innovatsion faoliyatni jadallashtirish uchun ilmiy-texnik salohiyat, texnoparklar va innovatsion infratuzilma tizimini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

Xodjaye (2021) o'z asarlarida innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, texnologik modernizatsiya, R&D faoliyatining mintaqaviy o'ziga xosliklari va klasterlash jarayonlari haqida keng ma'lumot beradi.

Xoliqulov (2020) mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi doirasida hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini tahlil qilib, investitsiya-innovatsiya jarayonlarining hududiy o'ziga xos xususiyatlari — resurs salohiyati, demografik holat, infrastruktura darajasi — mintqa rivojiga bevosita ta'sir etishini qayd etadi.

Tursunov (2022) esa mintaqaviy boshqaruv mexanizmlarida davlat-xususiy sheriklik va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining investitsiya-innovatsion jarayonlar samaradorligidagi ahamiyatini alohida ko'rsatadi.

Mahalliy adabiyotlarni umumiy tahlil shuni ko'rsatdiki:

- mintaqaviy investitsiya jarayonlari va innovatsion faoliyat o'zaro chambarchas bog'liq;
- hududiy iqtisodiy taraqqiyot bevosita investitsion jozibadorlik va innovatsion infratuzilmaga tayanadi;
- davlat siyosati, huquqiy baza va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi jarayonning asosiy omillaridandir.

Xorijiy ilmiy maktablarda mintaqaviy investitsiya va innovatsion jarayonlar muammosi chuqur nazariy asosga ega. Freeman (1987) innovatsion tizimlar kontseptsiyasini ishlab chiqib, innovatsiyalar mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror raqobat ustunligini shakllantirishini ta'kidlaydi.

Lundvall (1992) esa milliy va mintaqaviy innovatsion tizimlarning tarkibiy elementlarini aniqlab, fan, ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri sifatida belgilaydi. Cooke (2004) mintaqaviy innovatsion tizimlar nazariyasini chuqurlashtirib, innovatsion klasterlar, texnoparklar va ilmiy markazlar hududiy iqtisodiy yuksalishning asosiy institutsional komponentlari ekanligini asoslaydi.

Porterning (1990) klasterlar nazariyasi hududiy iqtisodiyotda investitsiya-innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. U raqobatbardoshlikni mintaqaviy klasterlar orqali oshirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Krugman (1991) iqtisodiy geografiya va mintaqaviy rivojlanish bo'yicha tadqiqotlarida investitsion oqimlar jamlanishi, transport-logistika omillari va bozor kattaligi mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar ekanini ko'rsatadi.

Yescombe (2007) va Grimsey & Lewis (2004) tomonidan davlat-xususiy sheriklikni investitsiya tizimi bilan uyg'unlashtirish, mintaqaviy innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, risklarni boshqarish mexanizmlari chuqur o'rganilgan.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdi:

- innovatsion rivojlanish mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy omili;
- investitsiya oqimlari kuchli infratuzilma, klasterlash va boshqaruv samaradorligi bilan uyg'unlikda rivojlanadi;
- davlat-xususiy sheriklik investitsion-innovatsion jarayonlarning global tendensiyasidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlarning nazariy asoslari, ularning mohiyati, tarkibiy elementlari hamda hududiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy, empirik, statistik va ekonometrik metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Natija va muhokama muhokamasi.

Mintaqaviy investitsiya jarayonlarining hozirgi holati va dinamikasi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston mintaqalarida investitsiya jarayonlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, ularning hududlar bo'yicha taqsimlanishi notekisdir. Markaziy mintaqalarda investitsiya oqimi yuqori bo'lib, infratuzilmaviy sharoitlar va iqtisodiy salohiyat kuchli bo'lgan hududlarda investitsiya faolligi yuqori darajada qolmoqda. Aksincha, chekka hududlarda transport-logistika infratuzilmasining sustligi, kadrlar yetishmovchiligi va bozor imkoniyatlarining cheklanganligi investitsiya oqimlarining sustligiga sabab bo'lmoqda. Bu holat Xoliqulovning (2020) mintaqaviy tafovutlar bo'yicha fikrlariga mos keladi.

Investitsiya jarayonlarining hududlar bo'yicha notekisligi mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini differensial yondashuv asosida shakllantirish zaruriyatini ko'rsatadi. Abdug'aniyev (2020) investitsion siyosatni hududiy salohiyatga moslashgan mexanizmlar orqali yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. Innovatsion jarayonlarning mintaqaviy o'ziga xosliklari. Innovatsion jarayonlarning shakllanishi ham hududiy resurslar, ilmiy-texnik salohiyat, kadrlar bazasi va infratuzilmaga bog'liq. Innovatsion rivojlanishning markazi sifatida yirik ilmiy-ta'lim komplekslari joylashgan hududlar yetakchilik qilmoqda. Bu Umurzakov (2019) tomonidan qayd etilgan ilmiy-texnik infratuzilmaning innovatsion jarayonlardagi hal qiluvchi roli bilan mosdir.

Innovatsiya faoliyati yuqori bo'lgan mintaqalarda texnoparklar, startaplar, biznes-inkubatorlar samarali faoliyat yuritmoqda. Biroq, ayrim hududlarda innovatsion infratuzilma hali to'liq shakllanmagan, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi yetarli emas. Bu Lundvallning (1992) innovatsion tizimlar nazariyasidagi "institutSIONal aloqadorlik" tamoyili yetishmasligiga mos keladi.

Investitsiya va innovatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi. Tadqiqot natijalari investitsiya va innovatsiya jarayonlari o'zaro bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Investitsiya faolligining ortishi innovatsion faoliyatning jadallashuviga sabab bo'ladi, innovatsion infratuzilma rivojlangan hududlarda esa investitsiya oqimlari ko'proq jalb qilinadi.

Bu holat Freeman (1987) va Cooke (2004) tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion tizimlar konsepsiyasiga to'liq mos keladi, ya'ni innovatsion muhit kuchaygan sari investitsiya oqimlari ham ortadi.

Mintaqalarda yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga qodir texnologik loyihalarning mavjudligi investorlarga yanada jozibador sharoit yaratadi. Shuningdek, Porterning (1990)

klasterlar nazariyasi asosida innovatsion klasterlar shakllangan hududlarda investitsiya-innovatsion jarayonlar yuqori sur'atda rivojlanishi qayd etildi.

Institutsional muhit va boshqaruv mexanizmlarining ta'siri

Hududiy investitsiya-innovatsion jarayonlarning samaradorligi nafaqat iqtisodiy omillar, balki institutsional muhit, ya'ni:

- qonunchilikning aniqligi,
- davlat qo'llovi,
- soliq va bojxona imtiyozlari,
- davlat-xususiy sheriklik tizimi sifatiga ham bog'liq.

Mahalliy olimlardan G'ulomov va Abduqodirodov (2018) investitsiya siyosatining institutsional asoslari mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi.

Xorijiy olimlar Grimsey & Lewis (2004) hamda Yescombe (2007) DXSh loyihalarida risklarni boshqarish va moliyalashtirish mexanizmlarining mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlarga ijobiy ta'sirini isbotlagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot mintaqaviy innovatsion-investitsion jarayonlarda institutsional muhitning barqarorligi eng hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi.

Mintaqalar o'rtasida rivojlanish tafovutlari va klasterlash jarayonlari. Tahlillar mintaqalar o'rtasida iqtisodiy, innovatsion va investitsion rivojlanish tafovutlari mavjudligini aniq ko'rsatdi. Bu tafovutlar qurilish, sanoat, transport, infratuzilma, demografik tarkib va geoiqtisodiy joylashuv omillariga bog'liq.

Porterning (1990) klaster nazariyasi asosida o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, klasterlash jarayonlari rivojlangan hududlarda:

- innovatsiyalar tezroq joriy etiladi,
- investitsiya oqimlari barqaror,
- raqobat muhitining kuchayishi natijasida iqtisodiy samaradorlik yuqori.

Kam rivojlangan mintaqalarda esa klasterlash jarayonlarining zaifligi investitsiya oqimlari va innovatsion faollikning pastligiga olib kelmoqda.

Natijalar bo'yicha yakuniy umumlashmalar. Mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlar hududning iqtisodiy salohiyati, resurslari, infratuzilma darajasi va institutsional muhitiga bevosita bog'liq.

1. Innovatsion infratuzilma rivojlangan mintaqalarda investitsiya oqimlari yuqori bo'ladi va aksincha.

2. Investitsiya-innovatsiya integratsiyasi yuqori bo'lgan mintaqalarda iqtisodiy o'sish sifati keskin yaxshilanadi.

3. Institutsional muhitning barqarorligi, DXSh loyihalari samaradorligi jarayonning muhim drayveri hisoblanadi.

4. Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar klasterlash, innovatsion ekotizimning mavjudligi va boshqaruv sifatiga bog'liq.

5. Innovatsion siyosatning hududiy darajada differensial qo'llanilishi jarayon samaradorligini sezilarli oshiradi.

Mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlar o'zaro mustahkam integratsiyalangan tizim hisoblanadi. Innovatsion muhit va iqtisodiy infratuzilmaning yetarliligi mintaqaviy raqobatbardoshlikni belgilaydi. Investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi mintaqaviy siyosatning differensial ko'rinishda olib borilishini talab qiladi. Xalqaro modellardan foydalanish, xususan, Porter, Lundvall, Cooke va Freeman tamoyillarini hududlar sharoitiga moslashtirish mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida muhim yo'nalish bo'lishi zarur.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqotlar mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlar hududlar iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari ekanini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, investitsiya oqimlari, innovatsion faoliyat, ilmiy-texnik salohiyat va infratuzilma darajasi o'zaro uyg'unlashgan holda mintaqaning raqobatbardoshligi va iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mintaqalar iqtisodiyotida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi, innovatsiyalarni joriy etish tezligi, kadrlar salohiyati va institutsional muhitning sifat darajasi hududlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biridir.

Mahalliy olimlar (Abdug'aniyev (2020), G'ulomov va Abduqodirov (2018), Umurzakov (2019), Xodjayev (2021), Xoliqulov (2020)) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar mintaqaviy investitsiya va innovatsiya jarayonlarining respublikamiz sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Xorijiy olimlar (Freeman (1987), Lundvall (1992), Cooke (2004), Porter (1990), Krugman (1991)) modellari esa mazkur jarayonlarning global qonuniyatlari hamda ilmiy asoslarini yoritib berdi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Mintaqaviy investitsiya-innovatsion jarayonlar bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi tizimli mexanizmdir.
2. Innovatsion infratuzilma kuchli bo'lgan hududlarda investitsiya oqimlari sezilarli darajada yuqori bo'ladi.
3. Investitsiya-innovatsion faollik darajasi mintaqaviy boshqaruv sifatiga, institutsional muhitning barqarorligiga va davlat siyosatining samaradorligiga bevosita bog'liq.
4. Mintaqalar o'rtasidagi investitsiya va innovatsiya tafovutlari iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, geografik joylashuv va klasterlash jarayonlarining darajasiga qarab shakllanadi.
5. Klasterlash jarayonlari rivojlangan hududlar texnologik yangiliklarni tezroq o'zlashtiradi va investitsion jozibadorlik darajasiga ega bo'ladi.
6. Innovatsion siyosatni hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial tartibda olib borish investitsiya-innovatsion jarayonlarning samaradorligini sezilarli oshiradi.

Umuman olganda, innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida mintaqaviy investitsiya siyosatini modernizatsiya qilish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, DXSh mexanizmlaridan samarali foydalanish va mintaqalar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish bo'yicha kompleks yondashuv zarur.

Hududiy investitsiya-innovatsiya siyosatini kompleks boshqarish. Har bir mintaq uchun "Investitsiya-innovatsiya pasporti"ni joriy etish. Hududiy darajada investitsiya va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi Innovatsion Kengashlarni tashkil etish. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. Texnoparklar, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va ilmiy markazlarni mintaq ixtisosligiga mos ravishda qayta tashkil etish. Universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida "Triple Helix" (Universitet-Biznes-Davlat) modeli asosida hamkorlikni kuchaytirish. Mintaqalarda klasterlash jarayonlarini jadallashtirish. Porterning klaster tamoyillariga asoslangan sanoat-innovatsion klasterlarni tashkil etish. Kichik va o'rta biznesni klasterlar ichida integratsiyalash uchun soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

- Abdug'aniyev A. (2020) *Investitsion siyosat va iqtisodiy o'sish*. – Toshkent: Fan.
- Cooke P. (2004) *Regional Innovation Systems*. – London: Routledge.
- Freeman C. (1987) *Technology Policy and Economic Performance*. – London: Pinter.
- G'ulomov S., Abduqodirov Q. (2018) *Investitsiyalarni boshqarish va investitsion muhit*. – Toshkent: Iqtisodiyot.
- Grimsey D., Lewis M. (2004) *The Economics of Public-Private Partnerships*. – Cambridge University Press.

- Krugman P. (1991) Geography and Trade. – MIT Press.*
- Lundvall B.-Å. (1992) National Systems of Innovation. – London: Pinter Publishers.*
- Porter M. (1990) The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press.*
- Tursunov Sh. (2022) Hududiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. – Toshkent.*
- Umurzakov I. (2019) Innovatsion rivojlanishning nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU.*
- Xodjayev N. (2021) Innovatsion iqtisodiyot va texnologik modernizatsiya. – Toshkent.*
- Xoliqulov R. (2020) Mintaqaviy iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Qarshi: Nashr.*
- Yescombe E. (2007) Public–Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. – Elsevier.*